


## MFY XODIMLARINING O'ZARO HAMKORLIKDAGI FAOLIYATI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA O'RGANILISHI

**Charos Umarova Nuridinovna**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti  
Ilmiy raxbar: P.f.f.d. (PhD), dots. **O.R.Avezov**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12737608>



### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 5-iyul 2024 yil  
Ma'qullandi: 8-iyul 2024 yil  
Nashr qilindi: 13-iyul 2024 yil

### KEY WORDS

MFY xodimlari, mahalla raisi, ijimoiy psixologik munosabatlar, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi.

### ABSTRACT

*Maqolada MFY xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini asosini psixologik munosabatlar, mahalla raisi va xodimlar o'rtasida o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat psixologik jihatlar yoritilgan.*

Xalqimizning azaliy an'analari va qadriyatlariga asoslangan uzoq tarixida mahalla deb nomlangan o'ziga xos boshqaruv tizimi shakllangan. Mahalla instituti O'zbekiston davlat mustaqilligi davrida alohida e'tiborga sazovor bo'lib, talqin qilina boshlandi. Davlat mustaqilligi sharofati bilan O'zbekistonda mahallalarga e'tibor berish, ularning ta'lim-tarbiyaviy huquqiy maqomini oshirish, o'zini o'zi boshqarish, beva-bechoralar, nogironlarning biron bir sababga ko'ra ishi yurishmagan oilalar va odamlarning issiq-sovug'idan, g'am-tashvishlaridan xabardor bo'lib, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish singari masalalar bo'yicha, shuningdek yanada obod va go'zal, ko'rkam va chiroyli bo'lishi, el-ulus mehr-muhabbatini qozonishida yangi davr boshlandi.

Mahalla – fuqarolik jamiyati instituti sifatida qator muhim vazifalarni bajarib, ilg'or tajribalarni ommalashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va kuchaytirish, ijtimoiy guruhlarining tengligini saqlashga yordam beradi. Shuning uchun ham bugungi kunda mahalla aholining barcha qatlamlarini himoya qiladigan, ularga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsata oladigan ijtimoiy institutga aylandi[1].

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organi sifatida oiladan fuqarolik jamiyatiga o'tish uchun axloqiy ko'prik bo'lib xizmat qiladi[2]. Mahalla – kuchli kommunikativ imkoniyatga ega bo'lgan tashkilot. Mahallada ezgu maqsadlarimizni amalga oshirish uchun belgilangan targ'ibot-tashviqot ishlari yoshlarimiz ongi hamda qalbiga ta'sir etishga urinalayotgan buzg'unchi g'oyalarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda ijobiy samaralar beradi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil

18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilib, asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari etib quyidagi ustuvor vazifalari belgilangan[3]:

-jamiyatda «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyilining to'laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko'maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-psixologik muhitni

sog'lomlashtirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o'rnatish;

-oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, «Sog'lom oila — sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish;

-xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta'minlash, ularni ijtimoiy va psixologik tomondan qo'llab quvvatlash, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash;

-xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

-fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining jamiyatdagi o'rni va rolini kuchaytirish, aholi kundalik muammolari bilan ishlash va ularni ijtimoiy psixologik qo'llab quvvatlash.

-mahallalarda qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalarida ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini mustahkamlash[3].

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023 yil 26 sentyabr kuni mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda mamlakatda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko'plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berish maqsadida «Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat "yettilik tizimi" tashkil etildi[4]. Unga ko'ra mahalla fuqarolar yig'ini rais boshchiligidagi xodimlar bir jamoa bo'lib, o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi. Mahalla fuqarolar yig'ini xodimlarining faoliyatini ijtimoiy-psixologik kompetentlik metodologiyasiga daxldor ayrim psixologik xususiyatlarni nazariy jihatdan izohlash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. MFY xodimlari ijtimoiy-psixologik kompetentligini yoritishda biz ijtimoiy-psixologik kompetentlik bo'yicha mavjud psixologik yondashuvlarning umumiy holatini tahlil etib o'tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Tadqiqotimiz maqsadi aynan MFY xodimlari ijtimoiy -psixologik kompetentligining umumiy yondashuvlari tabiatiga xos jihatlarni belgilashgina bo'lmay, balki ijtimoiy - psixologik kompetentlikning umumiy psixologik tabiatini yoritish, ularning psixologik rivojlanish, ijtimoiy shart-sharoitlarsiz mavjud bo'lmasligi to'g'risidagi yondashuvlarni o'zida aks ettirishi mumkinligidan dalolat beradi.

Bizning ilmiy yondashuvlar va izlanishlar borasidagi tahlillarimiz ushbu muammoni ijtimoiy-psixologik qirralarini chuqur o'rganishni va zamonaviy psixologiya talablaridan kelib chiqib ilmiy-nazariy xulosalarni shakllantirishni taqozo qilmoqda. Insonning o'zini qurshab turgan olam bilan o'zaro birgalikdagi harakati odamlar o'rtasida ularning ijtimoiy hayoti va eng avvalo ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob'ektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. Ishlab chiqarish uchun odamlar bir-birlari bilan muayyan aloqa va munosabatlarni, muloqotlar orqali bog'laydilar va faqat shu ijtimoiy aloqa va munosabatlar orqali ularning tabiatga nisbatan munosabatlari mavjud bo'ladi. Ob'ektivlik ya'ni ob'ektiv munosabatlar va aloqalar (bog'langanlik, bo'ysunganlik, hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlari va boshqalar) har qanday real guruhda muqarrar va qonuniyatli tarzda yuzaga keladi.

Munosabat – odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishning ko'p qirrali jarayonidir. Munosabat birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayrboshlanishini o'z ichiga oladi. Bunday axborot ayrboshlanishi munosabatning kommunikativ jihati sifatida ta'riflanishi mumkin. Odamlar munosabatga kirisharkan, munosabatning eng muhim vositalardan bir sifatidagi muloqotli amalga oshiruvchi tilga murojaat qiladilar. Munosabatning ikkinchi jihati – muloqotga

kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati – nutqi jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar, xatti-harakatlar bilan ayriboshlashdan iborat. Nihoyat, munosabatning uchinchi jihati munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqazo qilishidir. Ana shu uchta jihatning birligi holida o'rganilayotgan munosabat birgalikdagi faoliyatni va unga jalb etilgan odamlarning o'zaro birgalikdagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqadi. MFY xodimlarini amalga oshirilishi shakllari jihatidan qaraladigan psixologik munosabat – ularning o'zaro va fuqarolarning bilan birgalikda harakati usullari sistemasidir. Bunda, avvalo, MFY xodimi tomonidan turli xildagi kommunikativ vositalar yordamida fuqaro bilan o'zaro hamjihatlik va o'zaro muloqatlar o'rnatishi munosabatning mazmunini tashkil etadi. MFY xodimlari sotsial-psixologik kompetentligini asosini psixologik munosabatlar tashkil etib, avallo bu psixologik munosabat deganda, mahalla raisi va xodimlar o'rtasida o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat psixologik usullar va malakalardan o'z o'rnida samarali foydalanish tushuniladi.

Tadqiqotchi Sh.Mardiyevni ta'kidlashicha, inson yashashda davom etar ekan, u jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Jamiyatda esa hamma insonlarning o'z o'rnini va vazifalari mavjud. Barcha insonlarning dunyoqarashi, xulq-atvori va bilimi turlichadir. Shunday turfa-xilliklar kabi ularning jamiyatda tutgan o'rnini ham har xil. Barcha insonlar turli jabhalarda mehnat qiladilar. Mehnat faoliyati qay tartibda, jismoniy yoki aqliy bo'lishidan qat'iy nazar hamma, insonlar jamoasida harakat qiladilar. Tabiiyki bunday jamoalar boshqaruvchilar va xodimlar munosabatlarini vujudga keltiradigan boshqaruv jarayonini yuzga keltiradi. Bu jarayonda turli obyektiv hamda subyektiv faoliyatlar amalga oshiriladi. E'tiborlisi, jarayonning o'zi ham katta umumiy, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga shaklidagi boshqaruv faoliyatidir. Aynan shu jarayonda kimdir rahbar, yana kimdir xodim vazifasini bajaradilar[5].

Kasbiy faoliyatda MFY raisi va xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni qanday rivojlanishi ularining kasbiy kompetentligiga bog'liqdir. Ayni vaqtda rais va xodimlar o'rtasidagi muloqot jarayonini 2 xil emotsional muloqot turlariga bo'ladi.

a) salbiy his - tuyg'ularga asoslagan muloqot

b) ijobiy his – tuyg'ularga asoslanmagan muloqot.

Tadqiqotchi N.Mahmudovni fikricha, shaxsning yetakchilik imkoniyatini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlaridan biri insonda shakllangan qobiliyatga suyanish va qobiliyatni imkoniyatga qarab namoyon etishdir. Bunday yondashuv «vaziyatli yetakchilik» deb ataladi, unda yetakchi deb tan olingan shaxsning umumiy maqsadga erishish yo'lida muammoli vaziyatda o'z qobiliyatini namoyon eta olishi tushuniladi. Bu nazariyaga binoan, guruh bir necha yetakchiga ega bo'lishi mumkin, kezi kelganda, har bir jamoa a'zosi muammoli vaziyatni hal etish borasida o'z qobiliyat va imkoniyatini namoyish eta oladi. Shu bilan birga, jamoada shunday xodimlar ham borki, ular yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni hal eta oluvchi universal qobiliyatga ega bo'lishi kerak[6].

Hozirgi kun MFY xodimlari o'z qarashlari shakllangan, keng fikrga ega, ijodkor, qobiliyatli, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq eta oladigan davr talabiga mos yashaydigan, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-axloqli, odamgarchilik xususiyatlarga ega bo'lgan, sotsial-psixologik kompetentlikka ega bo'lishi lozim.

Psixologik manbalarda qayd etilgan ilmiy kuzatishlarga tayangan holda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning shaxsni jamiyatga, ya'ni o'zi yashayotgan, uning ijtimoiy muhit vakili sifatida e'tirof etiladigan muhitga moslashuviga; shaxslararo va kasbiy munosabatlarini samarali amalga oshirishiga yordam beruvchi qobiliyatlar majmuasidir deyishimiz mumkin. O'z navbatida, ijtimoiy-psixologik kompetentlik atamasi boshqa kishilar bilan munosabatda, o'zaro ta'sirlashuv jarayonida o'zini, xulq-atvorini, o'zga kishilarni tushunish va samarali o'zaro ta'sirlashuvni amalga oshirish hamda qo'yilgan maqsadga erishish o'quvini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Shuningdek, ijtimoiy-psixologik kompetentlik shaxsning ijtimoiylashuvi, ta'lim, madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshirishda muhim o'rin tutishini unutmazlik lozim. Ijtimoiylashtirish – bu shaxsni muayyan ijtimoiy muhitga jalb qilish va uning me'yorlari va qadriyatlarini

o'zlashtirish jarayoni. Inson yuqori darajada uyushgan primatlar singari faqat guruhda o'zini saqlab qolishi va yosh avlodga ta'lim va tarbiya berilishini ta'minlaydi. Guruhda, ayniqsa, oilada, shaxs bir qator zarur ijtimoiy ko'nikmalarni egallaydi[7].

Xulosa qilib aytganda ko'pchilik tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida kasbiy faoliyatdagi psixologik xizmat faoliyatini tashkil etishning psixologik xususiyatlarini ochib berishgan. Shu o'rinda kam tadqiq qilingan MFY xodimlarining faoliyat jarayonida ijtimoiy psixologik xususiyatlar dolzarb masala bo'lib, bu soha xodimlari fuqarolarning nafaqat moddiy, balki ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (oilaviy sharoiti, ijtimoiy mavqei, shaxslararo munosabatlari tizimi)ga alohida e'tibor qaratishlari muhim subektiv jarayon hisoblanadi. Mahalla fuqarolar yig'ini tizimi faoliyatini samaradorligini oshirishda asosiy e'tiborni MFY xodimlarining kasbiy kompetentligini oshirish jamiyat ravnaqiga katta hissa qo'shadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo'rayev Q. va boshq. Fuqarolik jamiyati asoslari.— Toshkent, Baktria press, 2015.-B.246
- 2.Otamirzayev O. Mahalla jamoatchilik fikri ko'zglasida // Mahalla, 2003, 15 oktyabr.
- 3.<https://lex.uz/docs/4740345> (murojaat vaqti 9.07.2024)
- 4.<https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/> (murojaat vaqti 6.07.2024)
- 5.Mardiyev Sh. Boshqaruvda rahbar qiyofasi va uning axloqi. // "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal / Volume 4 Issue. 1-February, 2023.-B.391
- 6.Maxmudov N., Boymatov A. Liderlik qobiliyatini namoyon qilishning psixologik xususiyatlari/ <https://sinteroncof.com/index.php/germanyarticleview989929>.-B.355
- 7.Ahrorov V. Sotsial psixologiya.– Samarqand: SamDU nashri, 2020. –B.105

INNOVATIVE  
ACADEMY